



O'QUVCHILAR TARBIYASIDA MAROSIMLAR, MILLIY URF- ODAT VA AN'ANALARNING O'RNI

Abdullayev Otabek

Buxoro viloyati

Osiyo xalqaro Universiteti

MM3-P-24 guruh

2-bosqich talabasi.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar tarbiyasida marosimlar, milliy urf-odat va an'analarning tutgan o'rni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy qadriyatlarning yosh avlodning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga, ijtimoiylashuv jarayoniga hamda milliy o'zlikni anglashiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, marosimlar va an'analar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada ta'lim jarayonida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish yo'llari, oila va maktab hamkorligining ahamiyati ham asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy urf-odat va an'analar o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** milliy tarbiya, marosimlar, urf-odat, an'ana, o'quvchilar tarbiyasi, ma'naviyat, ijtimoiylashuv, milliy qadriyatlar, pedagogika, vatanparvarlik.*

Jamiyat taraqqiyoti va uning istiqboli bevosita yosh avlodning qanday tarbiya olayotganiga bog'liqdir. Tarbiya esa faqatgina maktab yoki oiladagi rasmiy jarayon bilan cheklanib qolmaydi. U kengroq tushuncha bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy merosi, qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, o'quvchilar tarbiyasida marosimlar, milliy urf-odat va an'analar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida, ularning ijtimoiy va ma'naviy kamolotida muhim omil hisoblanadi.



Dunyo xalqlari ma'naviy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlar har bir millatning o'ziga xos tarixiy ildizlari, mazmuni va shakllanish bosqichlariga ega. Ular xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va badiiy tafakkurining yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bayram va marosimlar xalq ruhiyatining aks-sadosi bo'lib, unda ajdodlarimizning donishmandligi, estetik qarashlari hamda ma'naviy qadriyatlari mujassamlashgan. Shu boisdan ham ular nafaqat madaniy hodisa, balki milliy o'zlikni anglashda muhim vosita sifatida qadrlanadi.

Xalq bayramlari, urf-odatlari va marosimlari o'zida ko'plab badiiy va ramziy elementlarni mujassam etgan holda, avloddan-avlodga uzluksiz ravishda yetib kelgan. Bu jarayon davomida ular takomillashib, yangi mazmun va shakllar bilan boyib borgan. Natijada, ushbu qadriyatlar bugungi kunda nomoddiy madaniy meros sifatida e'tirof etilib, insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, xalq marosimlarida aks etadigan urf-odatlar jamiyatning tarixiy taraqqiyot yo'lini, turmush tarzini va ijtimoiy munosabatlarini o'zida yaqqol namoyon etadi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Xalq bayramlari, marosimlari va urf-odatlarini qayta tiklash, ularni zamonaviy ruhda rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda qadimiy an'analar yangi mazmun bilan boyitilib, ularning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, xalq ijodi va milliy san'at turlari davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanib, ularni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu esa milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir millatning shakllanishi va rivojlanishida uning moddiy, ma'naviy hamda nomoddiy madaniy merosi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, marosimlar va urf-odatlar xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib, unda insoniy munosabatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar o'z aksini topadi. Masalan, farzand tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan beshik to'yi, ism qo'yish, tushov kesdi, sunnat to'yi, nikoh marosimlari va kelinsalom kabi udumlar bola hayotining turli bosqichlarini ifodalaydi va ularning har biri o'ziga xos tarbiyaviy mazmunga ega. Bu marosimlar



orqali bolaga jamiyatning axloqiy qoidalari, odob-axloq me'yorlari va milliy qadriyatlari singdiriladi.

Bundan tashqari, pazandachilik bilan bog'liq an'analar ham milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy taomlar nafaqat ovqatlanish ehtiyojini qondirish, balki mehmondo'stlik, saxovat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq sayillari va ommaviy bayramlar esa jamiyatni birlashtiruvchi, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, umumxalq miqyosida nishonlanadigan bayramlar, jumladan, bahor va yangilanish timsoli bo'lgan Navro'z bayrami o'zining boy an'analari bilan ajralib turadi. Ushbu bayram bilan bog'liq urf-odatlar, hashar tadbirlari, xalq o'yinlari va marosimlar jamiyatda birdamlik, tabiatga hurmat, ezgulik va yangilanish g'oyalarini targ'ib etadi. Bu esa yosh avlodni ijobiy ruhda tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Urf-odatlar, marosimlar va bayramlar har bir millatning ma'naviy boyligini ifodalovchi muhim qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviy merosi avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu boisdan ham ularni asrab-avaylash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Milliy urf-odat va an'analar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, turmush tarzi va dunyoqarashining mahsulidir. Ular jamiyatning axloqiy mezonlarini, qadriyatlar tizimini, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Marosimlar esa ana shu qadriyatlarning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lib, muayyan voqea yoki hodisaga bag'ishlangan tadbirlar majmuasini tashkil etadi. To'ylar, bayramlar, diniy marosimlar, mehnat an'analari va xalq sayillari shular jumlasidandir.

O'quvchilar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni, avvalo, ularning milliy o'zligini anglash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bola o'z xalqining urf-odatlarini, an'analari bilan tanishar ekan, unda milliy identitet shakllanadi. Bu esa o'z



navbatida, vatanparvarlik, milliy g'urur, o'z xalqiga sadoqat kabi fazilatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy o'zlikni anglagan shaxs esa jamiyatda faol, ongli va mas'uliyatli fuqaroga aylanadi.

Marosimlar o'quvchilarning ijtimoiylashuvida ham muhim rol o'ynaydi. Chunki har bir marosim – bu ijtimoiy muhit, unda turli yoshdagi insonlar o'zaro munosabatga kirishadi. O'quvchilar ana shu jarayonda jamiyat qoidalarini, muomala madaniyatini, ijtimoiy me'yorlarni amaliy tarzda o'rganadilar. Masalan, bayram tadbirlarida qatnashish orqali ular jamoa bilan ishlash, o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Milliy bayramlar o'quvchilar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Navro'z bayrami o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu bayram orqali o'quvchilar tabiatga mehr, yangilanishga intilish, ezgulik va mehr-oqibat kabi qadriyatlarni anglab yetadilar. Navro'z tadbirlarida xalq o'yinlari, milliy taomlar, urf-odatlar namoyish etilishi bolalarning madaniy dunyoqarashini kengaytiradi va ularda milliy qadriyatlarga hurmat hissini kuchaytiradi.

O'quvchilar tarbiyasida oilaviy marosimlarning ham o'rni katta. Masalan, to'y marosimlari, sunnat to'yi, beshik to'yi kabi udumlar orqali bolalar oila qadriyatlarini anglay boshlaydilar. Bu marosimlarda kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi. O'quvchilar bu jarayonlarda ishtirok etib, jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lgan oila haqidagi tasavvurlarini boyitadilar.

Milliy an'analar o'quvchilarning axloqiy tarbiyasida ham muhim vosita hisoblanadi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, bag'rikenglik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi fazilatlar aynan urf-odatlar orqali yosh avlodga singdiriladi. Masalan, mehmon kutish jarayonida bolalar mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish, ularga xizmat ko'rsatish, odob bilan muomala qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlar o'quvchilarning estetik tarbiyasida ham katta ahamiyatga ega. Milliy kiyimlar, hunarmandchilik buyumlari, musiqa va



raqslar orqali bolalarda go‘zallikni his etish, san‘atga qiziqish, estetik did shakllanadi. Masalan, milliy kuy-qo‘shiqlarni tinglash, xalq raqslarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda nafaqat estetik zavq, balki milliy madaniyatga bo‘lgan hurmat ham ortadi [2].

Zamonaviy ta‘lim tizimida milliy an‘analardan samarali foydalanish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘qituvchilar dars jarayonida mavzuga mos ravishda milliy qadriyatlarni integratsiya qilishi lozim. Masalan, ona tili va adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, tarix darslarida milliy bayram va an‘analarning kelib chiqishini o‘rganish, tarbiya soatlarida esa urf-odatlar mazmunini tahlil qilish o‘quvchilarning bilim va tarbiyasini uyg‘un rivojlantiradi.

Sinfdan tashqari tadbirlar ham bu borada muhim vosita hisoblanadi. Turli bayramlar, ko‘rik-tanlovlar, sahna ko‘rinishlari orqali o‘quvchilar milliy an‘analarni amaliy ravishda o‘zlashtiradilar. Masalan, “Eng yaxshi milliy taom”, “Milliy liboslar namoyishi”, “Xalq o‘yinlari festivali” kabi tadbirlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni ijodkorlikka undaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga singdirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki zamonaviy axborot makonining kengayishi, internet va ommaviy madaniyatning tez sur‘atlarda tarqalishi natijasida ayrim milliy urf-odat va an‘analar asta-sekin unutilish xavfi ostida qolmoqda. Bu holat esa yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ma‘naviy shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, ta‘lim tizimida milliy tarbiya masalasiga alohida e‘tibor qaratish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda oila va maktabning o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi omil sanaladi. Oila – bu bolaning birinchi ijtimoiy muhitidir. Aynan shu muhitda bola dastlabki axloqiy tushunchalar, odob-axloq me‘yorlari va milliy qadriyatlar bilan tanishadi. Ota-onaning o‘z farzandiga ko‘rsatgan namunalari, oiladagi muhit, qadriyatlarning amaliy ko‘rinishi bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Maktab esa bu



jarayonni ilmiy va tizimli asosda davom ettiradi. Ta'lim muassasalari orqali o'quvchilar milliy merosni chuqurroq anglaydi, uning mazmun-mohiyatini tushunadi va uni hayotiy faoliyatiga tatbiq etishni o'rganadi. Agar oila va maktab o'zaro uyg'unlikda faoliyat olib borsam, bu o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida yuqori natijalarga olib keladi.

Zamonaviy davrda texnologiyalar ham milliy qadriyatlarni targ'ib qilishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. Raqamli platformalar, multimedia vositalari, interaktiv darslar va onlayn resurslar yordamida milliy an'analarni yoshlar ongiga zamonaviy va qiziqarli shaklda yetkazish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, videoroliklar, virtual ekskursiyalar, milliy bayramlarga bag'ishlangan onlayn loyihalar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo'ladilar, balki ularni amaliy jihatdan ham his etish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa yoshlarning milliy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni o'z ildizlariga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, an'analarni faqat tarixiy meros sifatida emas, balki bugungi kun talablari bilan uyg'un holda rivojlantirish lozim. Bu esa yosh avlodni nafaqat o'z milliy qadriyatlariga sodiq bo'lishga, balki ularni zamonaviy jamiyatda qo'llay olishga ham o'rgatadi. Natijada, o'quvchilar o'z madaniyatini chuqur anglagan holda, boshqa madaniyatlarga ham hurmat bilan munosabatda bo'ladigan, keng dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllanadi [5].

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar tarbiyasida marosimlar, milliy urf-odat va an'analarning o'rni nihoyatda beqiyos va ko'p qirrali ahamiyatga ega. Ular nafaqat yosh avlodni ma'naviy jihatdan boyitadi, balki ularning axloqiy qarashlari, hayotiy tamoyillari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aynan milliy qadriyatlar orqali o'quvchilarda o'z xalqiga hurmat, tarixiga qiziqish, ajdodlar merosiga sadoqat kabi tuyg'ular rivojlanadi. Bu esa ularning shaxs sifatida barkamol bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, milliy urf-odat va an'analarda o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissini ham shakllantiradi. Ular orqali yoshlar jamiyatdagi o'z o'rnini



anglaydi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, jamoaga foydali bo‘lish kabi muhim hayotiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon esa ularni kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ongli va faol fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov, A. Maktabda milliy bayramlar va tadbirlarni tashkil etishning pedagogik aspektlari. Tashkent: Pedagogika, 2020. – 134 b.
2. Saidov, R. U. Milliy an‘analarning yoshlar ongiga ta’siri // Ijtimoiy fanlar. – 2021. – №1. – B. 60–66.
3. Yo‘ldoshev, Q. Q. Ta’lim tizimida milliy qadriyatlar integratsiyasi // Pedagogika jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–52.
4. Ismoilova, D. N. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning zamonaviy usullari // Ta’lim va innovatsiya. – 2022. – №4. – B. 33–38.
5. Mirzaeva, F. O‘quvchilarda axloqiy va ma’naviy tarbiya berishda milliy urf-odatlar ahamiyati. Ilmiy izlanishlar, 2022, №4, 102–110 b.